

"Elektr yoritish va nurlatish" fanidan olimpiada

✘ 26 mart kuni soat 15.00 da V-606 xonada "Elektr yoritish va nurlatish" fanidan Respublika Fan Olimpiadasi 1- turi bo'lib o'tdi. Respublika Olimpiadasini o'tkazish kafedraning dolzarb va mas'uliyatli masalalaridan ekanligini va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" vazifalarini bajarishda bu masalaga keng e'tibor berilayotganligini inobatga olib, "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasida 26.03.2019 yilning soat 1500 da V-606 xonada "Elektr yoritish va nurlatish" fanidan Respublika Fan Olimpiadasi 1- tur bosqichi bo'lib o'tdi va natijalari ma'lum qilindi. 1-tur olimpiadasida institutimizning "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakultetdan 5 nafar talabalar ishtirok etdi.

Respublika Olimpiadasini yuqori saviyada "Nizom" talablari asosida o'tkazish talab darajasida amalga oshirildi. "Elektr yoritish va nurlatish" fan olimpiadasidan 1-tur natijalariga asosan "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti "Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi 3-kurs 301-guruh talabasi Xushboqov Botir Azamat o'g'li 352 ball natija bilan birinchi o'rinni egalladi.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov